

Sultonshoh Xorazmshoh



Sultonshoh Xorazmshoh

Sultonshoh Mahmud, Jaloliddin Mahmud Sultonshoh

(? – 1193 yil, 19 sentyabr)

(1172-1193)

Anushteginiylar sulolasidan bo'lgan *Xorazmshohlar davlati* shahzodasi. **Elarson** va Turkon xotunning kenja o'g'li. Sultonshohning akasi **Takash** Jand viloyatida voliy bo'lib turgani uchun otasi o'limi oldidan Sultonshohni valiahd etib tayinlagan. Ammo, davlat va harbiy ishlarga uning onasi **Turkon xotun** bosh bo'lgan. Takash Sultonshohga bo'ysunishdan bosh tortgan, u qoraxitoylar yordamida Gurganjga qo'shin tortgan. Sultonshoh onasi bilan Nishopurga qochib borib, **Muayyid ad-davla Oy-Abo** huzuridan panoh topgan.

1172 yil 11-dekabrda Takash rasman Xorazm taxtiga o'tirgan, biroq Sultonshoh bilan Takash o'rtaсидаги kurash yana 20 yil davom etган. Sultonshoh Xurosonдаги bir qancha viloyat, shaharlarni egallab, Marv shahrini o'ziga qarorgoh qilgan. U Takashga qarshi kurashda goh qoraxitoylardan, goh quriylardan ko'mak olib turgan.

2023-10-29 23:33:40